





O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish

**RAQAMLAR:**

- Respublikamizdagi chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarining **3,7 %** muqobil energiya manbalaridan foydalanadi
- Kuzatilgan xo'jaliklar sonidan **2,7%** biogaz qurilmasidan foydalanadi
- 1 ta biogaz qurilmasi bir oyda o'rtacha: **21,8 tonna** bio'g'it, **1,8 ming kub. m.** biogaz ishlab chiqaradi.


2017 yil avgust oyida Davlat statistika qo'mitasi tomonidan muqobil energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizdagi chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarining muqobil energiya manbalaridan foydalanish ko'rsatkichlari o'tgan yilgi kuzatuv natijalariga nisbatan oshgan.

Olingan natijalarga ko'ra hududlarda muqobil energiya manbalaridan foydalanish Navoiy viloyati (17,6% viloyatda kuzatilgan xo'jaliklar sonidan), Qashqadaryo (7,3%), Farg'ona (4,6%), Sirdaryo (4,5%), Toshkent (4,3%) viloyatlaridan tashqari sezilarli darajada farq qilmaganini ko'rsatdi.



Quyosh kollektor qurilmalaridan foydalanish ko'rsatkichlarida sezilarsiz miqdorda kamayishi bilan bir qatorda, biogaz qurilmalaridan


foydalanuvchi xo'jaliklar sonining oshish tendensiyasi kuzatilmoqda.



Shu bilan bir qatorda, ta'mirlash va modernizatsiya qilish ishlari olib borilganligi natijasida, biogaz qurilmasi mavjud xo'jaliklarning 28 % da biogaz qurilmalari vaqtinchalik ishlamagan.

Kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra biogaz qurilmasi oyiga o'rtacha 426 soat ishlaydi.

**1 ta biogaz qurilmasining bir oyda o'rtacha mahsulot ishlab chiqarishi**



Kuzatuv natijalari muqobil manbalar yordamida elektroenergiya ishlab chiqarilishining o'sishida ijobiy tendensiyalarni ko'rsatdi. Parrandachilik va chorvachilik xo'jaliklarida fotoelektrik qurilmalar yordamida ishlab chiqarilgan elektr energiyaning o'rtacha hajmi

o'tgan yilgi kuzatuv bilan solishtirilganda 1,5 barobar oshganligini ko'rsatmoqda. Suvni isitish uchun quyosh kollektor qurilmalaridan foydalanadigan xo'jaliklarda, guvohnomaga ega zamonaviy elektr tejaydigan suv isitish qozonlari o'rnatilgan.


**Fotoelektrik qurilmalar va suvni isitish uchun quyosh kollektor qurilmalarining o'rtacha foydalanish ko'rsatkichlari**



**1 ta ishlaydigan quyosh batareyasining o'rtacha quvvati**

**Bir kunda ishlab chiqariladigan energiyaning o'rtacha hajmi**


**Suv isitish uchun bitta kollektor qurilmasining o'rtacha energiya yig'ish miqdori**



Muqobil energiya manbalarining mavjudligi bilan bir qatorda, kuzatuv natijalari energiya ishlab chiqarish uchun uskunalarni energiyadan foydalanish darajasini aniqlash imkonini berdi.


1 ta xo'jalikning bir yilda o'rtacha tabiiy gaz iste'moli 17,1 ming kub.m., elektr energiyasining bir yilga o'rtacha iste'moli – 74495,6 kVt.s. Kuzatilgan xo'jaliklarning deyarli yarimi – 466 tasi 380V kuchlanishga ega uchfazali elektr tarmog'iga ulangan.

Uskunalarining energiya ishlab chiqarishi uchun energiya iste'moli darajasi  
(jami kuzatilgan xo'jaliklar sonidan % da)



So'rov o'tkazilgan xo'jaliklarning yarmidan ko'pida – 509 tasida elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan generator qurilmalari

mavjud. 1 ta qurilmaning o'rtacha quvvati – 36,6 kVt, bir oyda o'rtacha ishlash soati – 52,5 s..



O'zbekiston Respublikasi  
Davlat statistika qo'mitasi  
Sanoat statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul: Avakova A.  
Aloqa telefoni: (0371) 230-80-48